

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
4	60230100	Filologiya va tillarni o'qitish: koreys til	+		Filolog, pedagog (koreys va ingliz tillari bilan)

Yo'nalish tavsifi

Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi – gumanitar fanlar sohasidagi yo'nalish. Bitiruvchilarning kasbiy faoliyat ob'ekti asosiy o'rganilayotgan tilning nazariy va amaliy asoslari, lug'at boyligi, mazkur tildagi ilmiy va badiiy adabiyot, og'zaki nutq, umumiy tilshunoslikning nazariy masalalari, o'rganilayotgan asosiy tilning xalq adabiyoti, uning tarixi va hozirgi holati, nazariy masalalari, manbashunoslik masalalari, tarjima nazariyasi va amaliyoti asoslari, sinxron tarjima masalalari, o'rganilayotgan til metodikasi, dars berish mahorati va nutq madaniyati tamoyillaridan iborat. Bitiruvchilar maktabgacha, umumiy, o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'rganilgan sharq va g'arb tillaridan dars berish, badiiy, ilmiy asarlarni tarjima qilish, bibliografik materiallar tayyorlash, taqrizlar yozish, texnik va boshqa tarjima turlarini amalga oshirish, mehmonxonalarda va turistik firmalarda menejer va ma'muriy xodim sifatida ishlash, o'rganilgan tillarini intensiv shaklda o'rgatish kabi kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirishlari mumkin.